



**TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI  
Q A R O R I**

---



---

2023 - yil 13 - iyun

176-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

**Toshkent shahar hokimining 2023-yil 8-iyundagi 354-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli va Toshkent shahar hokimining 2023-yil 8-iyundagi 354-14-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining “Toshkent shahri aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 8-iyundagi 354-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-son qarori qabul qilinganligi hamda unga muvofiq:

Seysmik xavfsizlikni ta‘minlash va qurilishda nazoratni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tuzilganligi;

bino va inshootlarning konstruksiyalari texnik holati bo‘yicha instrumental-texnik tekshiruv xulosalari hamda muhandislik-geologik tadqiqotlar o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga tadqiqotlarni o‘tkazishning barcha jarayonlari videotasviri (ishlarni bajarish sanasi va vaqtி ko‘rsatilgan holda) va laboratoriya natijalari ilova qilinishi, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga kiritib borilishi va ularning reyestri yuritilishi;

instrumental-texnik tekshiruv va muhandislik-geologik tadqiqotlarni o‘tkazadigan tashkilotlar o‘tkazilgan har bir tadqiqot va ular bo‘yicha berilgan har bir xulosaning sifati va haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanishi;

instrumental-texnik tekshiruv va muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha hisobotlar "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida shakllantirilgan Instrumental-texnik tekshiruv xulosalarining yagona reyestri va Muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha hisobotlarning yagona reyestriga kiritilgan taqdirda haqiqiy deb tan olinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yangihayot tumanida seysmik xavfsizlikni ta’minalash va qurilishda nazoratni kuchaytirishga oid hududiy chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, A.Nurmatov), Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (S.Tursunov), Tibbiyot birlashmasi (Sh.Mamadaliev), Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abilkasimov), manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda 2023-yil 1-avgustga qadar tumanda kuchli va talafotli zilzila oqibatida aholi hayotini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan maxsus infratuzilmalarni (keyingi o‘rnarda — infratuzilmalar) yaratish bo‘yicha aniq choralarini belgilasin va kelishish uchun Toshkent shahar Kengashiga kirtsin.

Bunda, tuman kesimida:

aholini evakuatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ochiq va xavfsiz hududlarni belgilash;

evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish uchun zarur bo‘lgan chodir (palatka) va boshqa muqobil konstruksiyalar (sendvich qurilmalar, konteynerlar) soniga bo‘lgan ehtimoliy talabni aniqlash va Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasiga taqdim etish;

belgilangan hududlarga aholini xavfsiz evakuatsiya qilishni tezkor tashkil etish, evakuatsiya qilingan aholi hayoti uchun zarur bo‘lgan vositalarni yetkazish maqsadida avtomobil yo‘llarini barpo etish, zarur hollarda mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

kuchli zilzila natijasida jabrlangan fuqarolarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi vositalarga bo‘lgan ehtimoliy ehtiyojni aniqlash va Davlat zaxiralarini boshqarish qo‘mitasiga taqdim etish;

evakuatsiya qilingan fuqarolar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazishni tashkil etish tartibi hamda elektr energiyasi va ichimlik suv bilan ta’minalash rejasini ishlab chiqish;

infratuzilmalarni yaratish bo‘yicha tadbirlar Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilanganligi nazarda tutilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, A.Nurmatov), Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (S.Tursunov), bilan birgalikda 2023-yil 1-iyundan boshlab “Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi” doirasida har yili reja-jadval asosida mahallalarda aholi ishtirokida zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o‘quv mashqlarini o‘tkazib borsin.

Bunda:

mahallalar aholisi ishtirokida qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorgarligini oshirib borish;

Maktabgacha va mакtab ta’limi (Sh.Tadjiev) bilan birgalikda ta’lim tashkilotlarining o‘quvchi va talabalarini zilzila oqibatlaridan o‘zini o‘zi muhofaza qilish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish usullariga o‘rgatish;

ko‘p qavatli uylarda yashovchi fuqarolar tomonidan o‘zboshimchalik bilan binolarning tayanch ustunlarini buzish va boshqa konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish kiritish holatlarining oldini olish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov, A.Nurmatov), Qurilish va uyjoy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish Toshkent shahar hududiy inspeksiysi bosh inspektori (A.Abdusalomov), va boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2023-yil 1- sentabrdan boshlab:

a) reja-jadval asosida:

poytaxtning seysmik faol zonasida joylashgan seysmik xavfsizligi III va IV toifaga kiruvchi ko‘p kvartirali uylardagi umumi foydalaniladigan joylarda (zinapoya yo‘laklari, cherdak va umumi foydalanishdagi oshxonalarda) o‘zboshimchalik bilan qurilgan konstruksiyalarni;

ko‘p kvartirali uylarning, shu jumladan, ularning yerto‘la va birinchi qavatidagi zilzilabardoshlikka ta’sir qiluvchi konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan kiritilgan o‘zgartirishlarni aniqlasın;

b) aniqlangan noqonuniy konstruksiyalar va zilzilabardoshlikka ta’sir qiluvchi konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish kiritish holatlari bo‘yicha qonunchilikka muvofiq choralar ko‘rilishini ta’minasin.

7. Quyidagilar:

amaldagi qonunchilikka muvofiq bino va inshootlar qurilishi bo‘yicha tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan parametrlarga, ushbu toifalardagi

foydalanishdagi bino va inshootning zilzilabardoshligiga ta'sir qiluvchi konstruksiyalarga, shu jumladan, birinchi qavat va yerto'lalarga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritish qat'iy taqiqlanishi;

shaharsozlik hujjatlari ekspertizadan o'tkazilishi talab etiladigan (yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan) obyektlar qurilish maydonining muhandislik-geologik tadqiqotlari va ularning ekspertizasi natijalari bo'yicha hisobotlar olish majburiy hisoblanishi;

rekonstruksiya qilinadigan obyektlar bo'yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazishda ularning konstruksiyalari texnik holati bo'yicha instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish xulosalari taqdim etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman hokimining o'rribbosarlari (D.Xalisov, A.Nurmatov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Yangihayot tumani bo'limi (M.Abazov):

ikki hafta muddatda hududlarda elektron-texnik pasportlar asosida instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish zarur deb topilgan binolarni instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha reja-jadvalni Toshkent shahar hokimligi bilan kelishgan holda tasdiqlasin va instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazilishini ta'minlasin;

instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazish yuzasidan har oyda Toshkent shahar hokimligiga ma'lumot kiritib borsin;

instrumental-texnik tekshiruvdan o'tkazishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tuman kesimida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va Toshkent shahar kengashi tomonidan tasdiqlanishini ta'minlasin.

9. Tuman hokimining o'rribbosari (D.Xalisov), Qurilish va uy-joy communal xo'jaligi boshqarmasi Yangihayot tumani bo'limi (M.Abazov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov), bilan birgalikda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda, birinchi navbatda, zilzilabardoshligi zaif bo'lgan ijtimoiy soha obyektlariga e'tibor qaratsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rribbosari D.Xalisov zimmasiga yuklansin.

**Yangihayot tumani hokimi**

**X.Inogamov**



Yangihayot tuman hokimining  
2023-yil 13-iyundagi  
176-14-220-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Yangihayot tumanida seysmik xavfsizlikni ta'minlash va qurilishda nazoratni kuchaytirishga oid hududiy chora-tadbirlar**

**DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar	Ijro nazorati
<b>I. Seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi huquqiy asoslarni hamda qurilish me'yoriy hujjatlarini takomillashtirish</b>						

1.	Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish, belgilangan taqirlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash holatlarini aniqlash.	<p>1. Reja-grafik asosida: poytaxtning seysmik faol zonasida joylashgan seysmik xavfsizligi III va IV toifaga kiruvchi ko‘p kvartirali uylarning umumiy foydanishdagi joylarida (zinapoya yo‘laklari, cherdak, umumiy foydanishdagi oshxonalarda) o‘zboshimchalik bilan qurilgan konstruksiyalarni; bino va inshoot, shu jumladan ularning yerto‘la va birinchi qavatidagi zilzilabardoshlikka ta’sir qiluvchi konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan kiritilgan o‘zgartirishlarni aniqlash.</p> <p>2. Aniqlangan noqonuniy konstruksiyalar va zilzilabardoshlikka ta’sir qiluvchi konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish kiritish holatlari bo‘yicha qonunchilikka muvofiq choralar ko‘rilihini ta‘minlash.</p>	2023-yil 1-sentabrdan boshlab reja-jadval asosida	-	<p>Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish Toshkent shahar hududiy inspeksiyasi bosh inspektori (A.Abdusalomov), Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (I.Xushvaqtov), Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (S.Tursunov), Ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar (kelishuv asosida)</p>	Tuman hokimining o‘ribbosarlari D.Xalisov, A.Nurmatov
----	--	---	---	---	---	---

## II. Seysmik xavfsizlikni ta‘minlash sohasiga seysmologik va kosmik tadqiqotlarni keng joriy etish

2.	Bino va inshootlar joylashgan maydonlarning deformatsiyalanish, siljish va cho kish dinamikasini kosmik monitoring qilish.	1. Har yili kosmik monitoring o‘tkaziladigan hududlar ro‘yxatiga taklif berish	Har yili 15-dekabrga qadar	Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni	Davlat kadastrlar palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot filiali (I.Saidrasulev), Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (S.Tursunov),	Tuman hokimining o‘rinbosari D.Xalisov
		2. Kosmik monitoring o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma'lumotlar bilan almashish.	Har yili 1-fevralga qadar	ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari		

**III. Seysmik xavfsizlik sohasini raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish**

3.	Kuchli zilzilalar ta'sirida Yangihayot tumanining talafot darajasini iqtisodiy baholash imkonini beruvchi raqamlashtirilgan simulyatsion model yaratish.	<p>1. Yangihayot tumanida qurilgan barcha bino va inshootlarning seysmobardoshlik bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni GIS platformasiga joylashtirish.</p> <p>2. Ma'lumotlar bazasidagi bino va inshootlarning seysmik jihatdan zaifligini va ularning kuchli zilzilalarda to'la shikastlanish qiymatlarini aniqlash.</p> <p>3. Yangihayot tumani hududida sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan zilzila o'choqlarining seysmik xavfini baholash.</p> <p>4. Kuchli zilzilalar sodir bo'lgan taqdirda shaharda qurilgan bino va inshootlarning buzilish darajasini baholash bo'yicha dastur ishlab chiqish.</p> <p>5. GIS platformasida simulyatsion platforma ishlab chiqish va uni test sinovidan o'tkazish.</p>	2023-2024-yillar	Innovatsion rivojlanish agentligining maqsadli moliyalashtirish mablag'lari	Axborot texnologiyalar bo'yicha mutaxassis (O.Qulmamatov) Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (I.Xushvaqtov), Davlat kadastrlar palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot filiali (I.Saidrasulev), Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi (S.Tursunov), Fanlar akademiyasi bilan birgalikda	Axborot texnologiyalar bo'yicha mutaxassis O.Qulmamatov
----	--	--	------------------	---	--	---

**IV. Qurilish konstruksiyalarining mustahkamligini tajriba yo'li orqali sinash hamda bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini oshirish**

4.	Vibrodinamik uskunalardan foydalangan holda bino va inshootlarda tatbiq etilayotgan yangi konstruktiv yechimlarni, tutashgan joylarni majburiy sinovdan o'tkazish tizimi mexanizmlari va tartiblarini joriy etish.	1. Vibrodinamik uskunalarda tajribalarni o'tkazish uchun maxsus poligonlar tashkil etish.	2023-yil sentyabr	Hisob-kitoblar asosida	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Yangihayot tumani bo'limi (M.Abazov), Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti bilan birgalikda	Tuman hokimining o'rinnbosari D.Xalisov
		2. Vibrodinamik uskunalardan foydalangan holda binolar va inshootlarni sinovdan o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va takliflar tayyorlash.	2024-yil iyulgacha			

**V. Aholini zilzilaga tayyorlash ishlarini takomillashtirish**

5.	Aholini o‘quv mashqlar va mashg‘ulotlarga jalb etish orqali ularning zilzila paytida to‘g‘ri harakatlanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini oshirish	1. Qo‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o‘quv mashqlari uchun «Zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari» mavzusida namunaviy o‘quv mashqi dasturini ishlab chiqish.	2023-yil may -	-	Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (S.Tursunov)	Tuman hokimining o‘rinbosarlari D.Xalisov, A.Nurmatov
		2. Rejalshtirilgan har bir qo‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o‘quv mashqlari rejasiga «Zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari» mavzusini kiritish.	Doimiy			
		3. Rejalshtirilgan har bir qo‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o‘quv mashqlarini real sharoitga yaqinlashtirgan holda, FVDT quyi tizimi barcha xizmat va tuzilmalari ishtirokida o‘tkazilishini ta‘minlash.	O‘quv mashqlar rejasi asosida			
		4. O‘quv mashqlariga aholini keng jalb etish.	O‘quv mashqlar rejasi asosida			

## VI. Bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini ta‘minlash

6.	<p>Yakka tartibdagi uy-joylarni qurishda seysmik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qurilish materiallarini ishlatalish va imoratlarning zilzilabardoshlik darajasini oshirish bo'yicha profilaktik tadbirlar olib borish.</p>	<p>1. Yakka tartibdagi uy-joylarni barpo etishda seysmik xavfsizlikni oshirish borasida mahalla hududlarida fuqarolar bilan tushuntirish ishlari o'tkazish.</p> <p>2. Fuqarolar savodxonligini oshirish va uy-joyning seysmik xavfsizligini ta'minlash borasida fuqarolarga qo'llanmalar, eslatmalar va bo'yicha profilaktik boshqa targ'ibot materiallarini tadbirlar olib tarqatish.borish.</p> <p>3. Yakka tartibdagi uy-barpo etishda seysmik xavfsizlikka rioya etish yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ibot tadbirlarini olib borish.</p>	<p>1-iyuldan boshlab reja-jadval asosida</p>	<p>Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligi va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari</p>	<p>Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Yangihayot tumani bo'limi (M.Abazov), Fanlar akademiyasi bilan birgalikda</p>	<p>Tuman hokimining o'rribbosari D.Xalisov</p>
----	---	---	--	--	--	--